



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-oktabr

524-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida davlat nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PF–118-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 443-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida davlat nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PF–118-son Farmoni va Namangan viloyat hokimining 23 iyuldagi 443-6-0-Q/24-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida davlat nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PF–118-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida”gi 443-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura va Energetika vazirligining Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasini (keyingi o‘rinlarda - O‘zenergoinspeksiya) uning faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha, O‘zenergoinspeksiya yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi;

O‘zenergoinspeksiyaga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklanganligi:

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda energiya samaradorligi bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish va mazkur sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

yillik energiya iste‘moli 500 tonna shartli yoqilg‘idan yuqori bo‘lgan barcha sanoat korxonalarida energiya iste‘molini boshqarish tizimini (Energy Management System) joriy etishni nazorat qilish;

sohada davlat nazoratini amalga oshirish va hisobotlarni yuritish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish;

energiya auditorlarga malaka sertifikatlarini berish va zamonaviy o‘lchov laboratoriyalari bo‘yicha minimal talablarni belgilash;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zenergoinspeksiya boshlig‘iga, zarur hollarda, O‘zenergoinspeksiya tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha respublika komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Respublika komissiyasi) yangilangan tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zenergoinspeksiya Respublika komissiyasining ishchi organi etib belgilanganligi;

Iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalarda energiya samaradorligini oshirish, sanoat korxonalarining bu boradagi ishini muvofiqlashtirish hamda energetika sohasidagi davlat nazorati tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida O‘zenergoinspeksiyaning markaziy apparati tuzilmasida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan saqlanadigan mavjud shtat birliklari doirasida 30 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan Energiya samaradorligini oshirish departamenti va Energetika nazorati sohasini raqamlashtirish boshqarmasi tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov